QURILISH KORXONALARIDA ESG KOMPONENTLARINING MUVOZANATI VA KORPORATIV IJTIMOIY BOSHQARUV INTEGRAL BAHOSINING BARQARORLIGI TAHLILI

Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Toshkent shahridagi to‘rtta qurilish korxonasida korporativ ijtimoiy boshqaruv darajasi ekologik (E), ijtimoiy (S) va boshqaruv (G) komponentlari bo‘yicha 17 ta indikator asosida baholangan. Integral ESG indeksi ikki xil og‘irlik tizimida hisoblanib, korxonalar reytingining og‘irliklarga sezgirligi tekshirilgan. Komponentlar o‘rtasidagi muvozanatni o‘lchash uchun muvozanat koeffitsienti taklif etilgan. Natijalar integral indeksi yaqin bo‘lgan korxonalarda ham boshqaruvning zaif bo‘g‘inlari turlicha ekanligini ko‘rsatdi va har bir korxona uchun tabaqalashtirilgan takomillashtirish yo‘nalishlari asoslandi.*

Kalit so‘zlar: *korporativ ijtimoiy boshqaruv, ESG, integral indeks, muvozanat koeffitsienti, sezgirlik tahlili, qurilish korxonasi.*

АНАЛИЗ СБАЛАНСИРОВАННОСТИ ESG-КОМПОНЕНТОВ И УСТОЙЧИВОСТИ ИНТЕГРАЛЬНОЙ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

Аннотация. *В статье оценен уровень корпоративного социального управления в четырёх строительных предприятиях г. Ташкента по экологическому (E), социальному (S) и управленческому (G) компонентам на основе 17 индикаторов. Интегральный ESG-индекс рассчитан при двух системах весов, проверена чувствительность рейтинга предприятий к весам. Для измерения сбалансированности компонентов предложен коэффициент сбалансированности. Результаты показали, что даже при близких значениях интегрального индекса слабые звенья управления различаются, и обоснованы дифференцированные направления совершенствования.*

Ключевые слова: *корпоративное социальное управление, ESG, интегральный индекс, коэффициент сбалансированности, анализ чувствительности, строительное предприятие.*

ANALYSIS OF THE BALANCE OF ESG COMPONENTS AND THE ROBUSTNESS OF THE INTEGRAL ASSESSMENT OF CORPORATE SOCIAL GOVERNANCE IN CONSTRUCTION ENTERPRISES

Abstract. *The article assesses the level of corporate social governance in four construction enterprises in Tashkent across environmental (E), social (S) and governance (G) components using 17 indicators. The integral ESG index is calculated under two weighting schemes, and the sensitivity of the enterprise ranking to the weights is tested. A balance coefficient is proposed to measure the balance between the components. The results show that even enterprises with close integral scores differ in their weak governance links, and differentiated improvement directions are substantiated for each enterprise.*

Keywords: *corporate social governance, ESG, composite index, balance coefficient, sensitivity analysis, construction enterprise.*

Kirish

Qurilish tarmog‘i O‘zbekiston iqtisodiyotining eng jadal o‘sayotgan sohalaridan biri bo‘lib, 2025-yilda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 313,9 trln so‘mni tashkil etgan [13]. Tarmoq ko‘lamining kengayishi bilan birga korxonalar faoliyatining ekologik, ijtimoiy va boshqaruv oqibatlariga bo‘lgan talablar ham kuchaymoqda. Jahon miqyosida bino va qurilish sohasi energiya bilan bog‘liq uglerod chiqindilarining qariyb 37 foizini beradi [14], qurilish esa mehnat xavfsizligi bo‘yicha eng yuqori xavfli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu sababli investorlar, buyurtmachilar va davlat organlari qurilish korxonalarini faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari bo‘yicha ham baholashga o‘tmoqda. «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida ham iqtisodiyotni «yashil» va barqaror rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Amaliyotda ESG bahosi ko‘pincha bitta integral raqam ko‘rinishida beriladi. Biroq integral raqam ikki muhim savolga javob bermaydi. Birinchidan, u komponentlarning o‘zaro muvozanatini yashiradi: bir xil umumiy bahoga ega ikki korxonaning birida boshqaruv, ikkinchisida ekologik faoliyat zaif bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, integral baho og‘irlik koeffitsientlarining tanloviga bog‘liq bo‘lib, og‘irliklar o‘zgarganda korxonalar reytingi ham o‘zgarishi mumkin. Xalqaro reyting agentliklari baholari o‘rtasidagi katta tafovutlar ham aynan shu bilan izohlanadi [5].

Mazkur maqolaning maqsadi qurilish korxonalarida ESG komponentlarining muvozanatini baholash va integral bahoning og‘irliklarga nisbatan barqarorligini tekshirish asosida korporativ ijtimoiy boshqaruvni takomillashtirishning tabaqalashtirilgan yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Korporativ ijtimoiy boshqaruvning nazariy asoslari R.Freemanning manfaatdor tomonlar nazariyasiga [7] borib taqaladi: unga ko‘ra korxona nafaqat aksiyadorlar, balki xodimlar, mijozlar, jamiyat va davlat manfaatlarini ham hisobga olishi lozim. A.Carroll korporativ ijtimoiy mas’uliyatni iqtisodiy, huquqiy, etik va filantropik darajalardan iborat piramida sifatida tavsiflagan [3], J.Elkington esa iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni birgalikda o‘lchashni nazarda tutuvchi «uch tomonlama natija» konsepsiyasini ilgari surgan [6].

ESG ko‘rsatkichlari va moliyaviy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘plab empirik tadqiqotlarda o‘rganilgan. G.Friede, T.Busch va A.Bassen 2 000 dan ortiq tadqiqotni umumlashtirib, ularning qariyb 90 foizida nomanfiy bog‘liqlik aniqlanganini ko‘rsatgan [8]. R.Eccles, I.Ioannou va G.Serafeim barqaror rivojlanish tamoyillarini boshqaruvga erta joriy etgan kompaniyalar uzoq muddatda bozor va buxgalteriya ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori natijaga erishganini aniqlagan [4]. M.Khan, G.Serafeim va A.Yoon esa faqat tarmoq uchun muhim (material) ESG masalalaridagi yutuqlar qiymat yaratishini isbotlagan [10]. Bu xulosa qurilish korxonalari uchun mehnat xavfsizligi, chiqindilar va boshqaruv shaffofligi kabi tarmoqqa xos indikatorlarni alohida baholash zarurligini asoslaydi.

Integral indekslarni qurish metodologiyasi OECD va Yevropa Komissiyasi Birlashgan tadqiqot markazining qo‘llanmasida batafsil yoritilgan bo‘lib, unda og‘irliklarni tanlash natijaga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi va shu sababli sezgirlik tahlili majburiy bosqich bo‘lishi ta’kidlanadi [12]. F.Berg, J.Kölbel va R.Rigobon turli agentliklarning ESG reytinglari o‘rtasidagi tafovutni o‘rganib, uning asosiy manbalari indikatorlar tarkibi va o‘lchash usullaridagi farqlar ekanini ko‘rsatgan [5].

Mahalliy olimlardan B.Xodiyev [17] va S.Elmirzayev [16] korporativ boshqaruvning milliy modelini, D.Begmatova [2] esa korporativ boshqaruvda strategik qarorlar qabul qilish masalalarini tadqiq etgan. Biroq qurilish korxonalarida ESG komponentlarining muvozanati va integral bahoning barqarorligi masalasi alohida o‘rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda muallif tomonidan avvalroq taklif etilgan baholash metodikasidan [15] foydalanildi. Tadqiqot obyekti sifatida «Trest-12» AJ, «O‘zshahar Qurilish Invest» MChJ, «DISCOVER INVEST» MChJ va «LAND HOUSE» MChJ tanlangan. Baholash 2025-yil ma’lumotlari asosida 17 ta indikator bo‘yicha amalga oshirildi: ekologik komponent (5 ta indikator) ISO 14001 va GRI 300 [9], ijtimoiy komponent (5 ta) ISO 45001 va GRI 400, boshqaruv komponenti (7 ta) OECD korporativ boshqaruv tamoyillari [11] asosida shakllantirildi. Har bir indikator 5 ballik ekspert shkalasida baholandi (5 – to‘liq joriy etilgan, 1 – mavjud emas). Komponent indeksi quyidagicha hisoblandi:

$I_k = (\Sigma\, b_{ki} / B_k^{max}) \times 100$

bu yerda b_{ki} – k-komponentning i-indikatori bo‘yicha ball, B_k^{max} – komponent bo‘yicha maksimal ball. Integral indeks ikki variantda hisoblandi: (A) tarmoq xususiyatini hisobga olgan og‘irliklar bilan (E – 0,35; S – 0,35; G – 0,30) va (B) teng og‘irliklar bilan (har biri 1/3):

$ESG_A = 0{,}35 \cdot E + 0{,}35 \cdot S + 0{,}30 \cdot G$; $ESG_B = (E + S + G) / 3$

Komponentlar muvozanatini o‘lchash uchun muvozanat koeffitsienti taklif etildi:

$K_m = \min(E, S, G) / \max(E, S, G)$

$K_m = 1$ bo‘lishi komponentlarning to‘liq muvozanatini, uning 0,7 dan past bo‘lishi esa kamida bitta komponentning boshqalardan sezilarli orqada qolganini bildiradi.

Tahlil va natijalar

Komponentlar bo‘yicha baholash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Korxonalarda ESG komponentlari indekslari (2025-yil), %

Komponent	Trest-12 AJ	O‘zshahar Q.I.	DISCOVER INVEST	LAND HOUSE
Ekologik (E), 5 indikator	68,0	92,0	68,0	32,0
Ijtimoiy (S), 5 indikator	80,0	92,0	96,0	52,0
Boshqaruv (G), 7 indikator	88,6	94,3	71,4	31,4

Manba: muallif hisob-kitoblari.

O‘zshahar Qurilish Invest MChJ uchala komponent bo‘yicha ham 92 foizdan yuqori natijaga ega. «Trest-12» AJda boshqaruv komponenti eng kuchli (88,6%), ekologik komponent esa eng zaif (68%) bo‘lib, bu aksiyadorlik jamiyatida korporativ institutlar shakllangan, biroq ekologik boshqaruv orqada qolayotganini ko‘rsatadi. DISCOVER INVEST MChJda aksincha manzara kuzatiladi: ijtimoiy komponent eng yuqori (96%), boshqaruv esa nisbatan past (71,4%). LAND HOUSE MChJda barcha komponentlar 52 foizdan oshmaydi.

Integral indeks va muvozanat koeffitsienti natijalari 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Integral ESG indeksi va komponentlar muvozanati

Ko‘rsatkich	Trest-12 AJ	O‘zshahar Q.I.	DISCOVER INVEST	LAND HOUSE
ESG_A (0,35/0,35/0,30), %	78,4	92,7	78,8	38,8
Reyting (A varianti)	3	1	2	4
ESG_B (teng og‘irliklar), %	78,9	92,8	78,5	38,5
Reyting (B varianti)	2	1	3	4
Komponentlar oralig‘i (max − min), f.b.	20,6	2,3	28,0	20,6
Muvozanat koeffitsienti K_m	0,77	0,98	0,71	0,60
Eng zaif komponent	E	S, E	G	G

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Ikki og‘irlik tizimi bo‘yicha natijalarni taqqoslash muhim xulosaga olib keladi. Yetakchi (O‘zshahar Q.I.) va eng past natijali (LAND HOUSE) korxonalarning o‘rni og‘irliklarga bog‘liq emas, ya’ni ularning bahosi barqaror. Biroq «Trest-12» AJ va DISCOVER INVEST MChJ o‘rtasidagi farq atigi 0,4 foiz bandni tashkil etadi va og‘irliklar o‘zgarganda ular o‘rin almashadi. Demak, ushbu ikki korxonani integral indeks bo‘yicha «yaxshiroq» yoki

«yomonroq» deb ajratish asossiz bo‘lib, ularni bitta guruhga kiritib, komponentlar kesimida tahlil qilish to‘g‘ri hisoblanadi.

Muvozanat koeffitsienti integral indeksi bir xil bo‘lgan korxonalar o‘rtasidagi sifat farqini ochib beradi. «Trest-12» AJ (0,77) va DISCOVER INVEST MChJ (0,71) deyarli bir xil integral bahoga ega, biroq ikkinchisida komponentlar oralig‘i 28 foiz bandga yetadi. Bu korxonaning yuqori ijtimoiy natijalari boshqaruv tizimidagi kamchiliklarni «yopib» turganini anglatadi. Boshqaruv tizimi zaif bo‘lgan holda yuqori ijtimoiy natijalarni uzoq muddat saqlab qolish qiyin, chunki ular rasmiylashtirilgan siyosat va nazorat mexanizmlariga emas, ko‘proq rahbariyatning shaxsiy tashabbusiga tayanadi. LAND HOUSE MChJda esa muvozanat koeffitsienti eng past (0,60) va barcha komponentlar past darajada bo‘lib, bu yerda tizimli, kompleks yondashuv talab etiladi.

Har bir korxonada eng past baholangan indikatorlar 3-jadvalda umumlashtirildi.

3-jadval

Korxonalarda korporativ ijtimoiy boshqaruvning zaif bo‘g‘inlari (2 va undan past ball yoki komponentdagi eng past ball)

Korxona	Zaif indikatorlar	Ustuvor chora
Trest-12 AJ	chiqindilarni saralash, yashil qurilish elementlari, ekologik hisobot (3 ball); ESG siyosati (3 ball)	ESG siyosatini qabul qilish, ekologik hisobotni GRI asosida yuritish
O‘zshahar Q.I.	kuzatuv kengashi faoliyati (3 ball)	mustaqil a’zolar ishtirokidagi kuzatuv kengashini shakllantirish
DISCOVER INVEST	ekologik hisobot (2 ball); ekologik monitoring, risk-menejment, ESG siyosati, kuzatuv kengashi (3 ball)	risk-menejment va ESG siyosatini rasmiylashtirish, ISO 14001 sertifikatlashni yakunlash
LAND HOUSE	risk-menejment, korrupsiyaga qarshi siyosat, ESG siyosati, ekologik monitoring, ekologik hisobot (1 ball)	boshqaruv komponentidan boshlab bosqichma-bosqich kompleks dastur

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ekologik hisobot yuritish va ESG siyosatining rasmiylashtirilmaganligi to‘rtta korxonadan uchtasi uchun umumiy muammo hisoblanadi. Bu holat sohada ESG hisobotining yagona standarti mavjud emasligi bilan bevosita bog‘liq.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Integral ESG indeksi korxonaning umumiy holatini ko‘rsatsa-da, komponentlar o‘rtasidagi muvozanatni yashiradi. Shu sababli integral bahoni muvozanat koeffitsienti K_m bilan birga qo‘llash tavsiya etiladi: $K_m < 0,7$ bo‘lgan korxonalarda eng zaif komponent ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi lozim.

2. Integral indeks qiymatlari orasidagi farq 1–2 foiz banddan kam bo‘lgan korxonalarni reytingda ajratish og‘irliklar tanloviga bog‘liq bo‘lib qoladi. Bunday korxonalarni bitta guruhga birlashtirish va baholash natijalarini sezgirlik tahlili bilan birga e’lon qilish maqsadga muvofiq.

3. Tadqiqot obyekti korxonalari uchun tabaqalashtirilgan yo‘nalishlar asoslandi: «Trest-12» AJda – ekologik boshqaruv va ESG siyosati; DISCOVER INVEST MChJda – boshqaruv komponenti (risk-menejment, ESG siyosati); O‘zshahar Qurilish Invest MChJda – kuzatuv kengashi faoliyati; LAND HOUSE MChJda – boshqaruv komponentidan boshlanadigan kompleks dastur.

4. Sohada ESG hisobotining yagona standarti yo‘qligi korxonalarning taqqoslanuvchanligini pasaytirmoqda. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan GRI standartlariga asoslangan, tarmoqqa xos indikatorlarni o‘z ichiga olgan namunaviy ESG hisoboti shaklini ishlab chiqish va yirik qurilish korxonalarida bosqichma-bosqich joriy etish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni. – www.lex.uz.

2. Begmatova D. Korporativ boshqaruv tizimida strategik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish: monografiya. – Toshkent: TDIU, 2021. – 176 b.

3. Carroll A.B. The Pyramid of Corporate Social Responsibility: Toward the Moral Management of Organizational Stakeholders // Business Horizons. – 1991. – Vol. 34, No. 4. – P. 39–48.

4. Eccles R.G., Ioannou I., Serafeim G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // Management Science. – 2014. – Vol. 60, No. 11. – P. 2835–2857.

5. Berg F., Kölbel J.F., Rigobon R. Aggregate Confusion: The Divergence of ESG Ratings // Review of Finance. – 2022. – Vol. 26, No. 6. – P. 1315–1344.

6. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. – Oxford: Capstone, 1997. – 402 p.

7. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. – Boston: Pitman, 1984. – 276 p.

8. Friede G., Busch T., Bassen A. ESG and Financial Performance: Aggregated Evidence from More than 2000 Empirical Studies // Journal of Sustainable Finance & Investment. – 2015. – Vol. 5, No. 4. – P. 210–233.

9. Global Reporting Initiative. GRI Standards. – Amsterdam: GRI, 2021.

10. Khan M., Serafeim G., Yoon A. Corporate Sustainability: First Evidence on Materiality // The Accounting Review. – 2016. – Vol. 91, No. 6. – P. 1697–1724.

11. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.

12. OECD, JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. – Paris: OECD Publishing, 2008. – 162 p.

13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Qurilish ishlari hajmi dinamikasi. – https://stat.uz

14. UNEP. Global Status Report for Buildings and Construction 2024/2025. – Nairobi: United Nations Environment Programme, 2025.

15. Murotkosimov Sh.A. Qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy boshqaruv tizimini baholash metodikasini takomillashtirish // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2026. – № 5. – B. 986–991.

16. Elmirzayev S.E. Zamonaviy korporativ boshqaruv: darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 416 b.

17. Xodiyev B. Korporativ boshqaruvning milliy tizimini rivojlantirish yo‘nalishlari: monografiya. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 246 b.